

**TA'LIM-TARBIYA HAMDA BOLALAR PSIXOLOGIYASI MASALALARI**

Sh.Quvondiqova

SamDU Psixologiya

yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya**

Jamiyat taraqqiyoti va vatanimiz ravnaqi ertangi kunimiz ushbu dolzarb muommolarning qanchalik yechim topishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.I.Ivanovning "Umumiy psixologiya " darsligida takidlanganidek : "Ta'lism- tarbiyaning muvaffaqiyati o'quv materialining mazmunigagina, ta'lism- tarbiya metodlarigagina bog'liq emas.Bu muvaffaqiyat ko'p jihatdan o'quvchining qanday o'qiyotganligini bilishga, ya'ni o'quvchining yosh xususiyatlariga , dastlabki aqliy taraqqiyoti va faolligiga muvofiq bilim va malakalar o'zlashtirish jarayonining psixik asoslarini bilishga ham bog'liqdir . O'quv materiali mazmunini tanlash, o'quv programmalari va rejali, darslik va o'quv qo'llanmalarini tuzish, shuningdek, maktab ta'liming har xil bosqichlarida turli o'quv predmetlari bo'yicha o'qitish metodlari sistemasini tashkil qilish va tanlsh ham ko'p jihatdan ta'limga psixologik asoslarini bilishga va hisobga olishga bog'liq".

**Kalit so'zlar:** xis-tuyg'u, garmon, ta'lism- tarbiya, xulq-atvor, kadr, ma'naviyat, axloq.**ВОПРОСЫ ОБРАЗОВАНИЯ И ДЕТСКОЙ ПСИХОЛОГИИ**

Ш.Кувондикова

СамГУ Психология

направление студентка 2 курса

**Аннотация**

От того, насколько эти насущные проблемы будут решены в будущем, зависит развитие общества и процветание нашей страны.Этот успех зависит не только от методов воспитания. От знания и принятия во учет психологических основ воспитания».

**Ключевые слова:** эмоция, гармония, воспитание, поведение, персонал, духовность, нравственность.**ISSUES OF EDUCATION AND CHILD PSYCHOLOGY**

Sh.Kuvondikova

SamSU Psychology

direction 2nd year student

**Abstract**

The development of society and the prosperity of our country depend on how these pressing problems are solved in the future. This success depends not only on the methods of education. From knowing and taking into account the psychological foundations of education.

**Keywords:** emotion, harmony, upbringing, behavior, staff, spirituality, morality.

O'zbekiston respublikasi 1991-yilda davlat mustaqilligiga erishdi. Mana 30 yildirki Respublikamiz rivojlanishda davom etmoqda. Taraqqiyot so'zi har soha o'zining amaldagi isbotini topib boryapti desak mubolag'a bo'lmaydi . Respublikamiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha oladigan O'zbekiston Respublikasi bayrog'ini butun jahonga tanitishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash asrimizning dolzar muommosi hisoblanadi.

Tarbiya shaxsni shakllantirish maqsadiga qaratilgan va unda xayotiy e'tiqod va xis-tuyg'ular, xulq-atvor xosil qilish jarayonidir "Ta'lim- tarbiyani yangi zamon talablariga ko'tarish o'sib kelayotgan yosh avlodlarimizning porloq kelajagini garmonik o'stirish imkoniyatini yaratish xozirgi kunning asosiy masalasidir"- degan edi O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning 9-sessiyasida qbul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi shuni nazarda tutadiki, boshqa muhim masalalar qatorida milliy qayta tiklanish mafkurasi va jamiyat boyliklari asosida o'quvchilarini ma'naviy va axloqiy xislatlarini o'stirish, o'quvchilarining xulq madaniyatini shakllantirish barkamol naslni tarbiyalab yetishtirish lozim.

Prizedintimiz Sh.M.Mirzeyoyev tomonidan endigi muhim vazifa sifatida: "Farzandlarimiz tarbiyasi va ma'naviy ma'rifiy sohadagi ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur" ekanligi alohida takidlandi . CHunonchi,davlatimiz ravnaqi kelajak avlodning bilim savyasiga shaxsiy sifatlarining qanchalik ijtimoiy sanksiyalarga javob bera olishiga ko'p jihatdan bo'liqdir.

Professor P.I.Ivanov "Umumiy psixologiya" takidlaganidek , "Tarbiyanayotgan bola - bu xohlagan bo'yoqni berish mumkin bo'lgan, xohlagan naqshni solish mumkin bo'lgan toza paxta emas; bu insoniy qalbga, tug'ma kurtaklarga, qandaydir ehtiyoj va intilishlarga, qandaydir taraqqiyot darajasiga va nihoyat, albatta , hali o'zi anglab olaolmagan, qandaydir potensial imkoniyatlarga ega bo'lgan jonli odamdir".(461)

Ko'p hollarda ota onalar farzandlarni xoshish istaklari bilan qiziqib ham ko'rmasdan unga o'zi xohlagan "buyoq"ni bermoqchi bo'ladi. Bu esa naqadar salbiy va hatto tuzatib bo'lmas oqibatlarga olib kelishini anglab yetmaydilar.Natijada Ularni o'z xohish istaklarining qo'rboniga aylantirib qo'yadilar.

Holbuki, hatto bola ham o'zining xohish istaklari fiklari va dunyoqarashlariga ega

Bola tabiatining mana shu "asosiy" kuchlarini ochish, rivojlanayotgan odamning ma'naviy va estitek imkoniyatlarini o'rganish psixologiya fanimizning yaqin vaqtlardagi eng muhim vazifalarini tashkil qiladi.

Ta'lim hamda tarbiya psixologiyasi masalalarini hal qilishda, albatta iroda psixologiyasi, axloqiy va estetik hislar psixologiyasi va unga yosh va individual xususiyatlari, ayniqsa, shaxs psixologiyasi kabi dolzarb muommolarni, ayniqsa, shaxs psixologiyasi va unga oid yosh va individual xususiyatlari muommosini yanada chuqur ishlab chiqish ta'lim berishning yangi zamonaviy metodlarini amaliyotda tadbiq etish va bolalarda ta'lim olishga bo'lgan motivlarni yanada oshirish talab qilinadi.

Jamiyat taraqqiyoti va vatanimiz ravnaqi ertangi kunimiz ushbu dolzarb muommolarning qanchalik yechim topishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.I.Ivanovning "Umumiy psixologiya " darsligida takidlanganidek : "Ta'lim- tarbiyaning muvaffaqiyati o'quv materialining mazmunigagina, ta'lim-tarbiya metodlarigagina bog'liq emas.Bu muvaffaqiyat ko'p jihatdan o'quvchining qanday o'qiyotganligini bilishga, ya'ni o'quvchining yosh xususiyatlariga , dastlabki aqliy taraqqiyoti va faolligiga muvofiq bilim va malakalar o'zlashtirish jarayonining psixik asoslarini bilishga ham bog'liqdir. O'quv materiali mazmunini tanlash, o'quv programmalari va rejalar, darslik va o'quv

qo'llanmalari tuzish, shuningdek, maktab ta'limining har xil bosqichlarida turli o'quv predmetlari bo'yicha o'qitish metodlari sistemasini tashkil qilish va tanlsh ham ko'p jihatdan ta'limning psixologik asoslarini bilishga va hisobga olishga bog'liq".

Bolaning shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar:

1. Irsiyat

2.Ta'lim-tarbiya

3.Ijtimoiy muhit

Manashu uch asosiy omil bizga ongli har tomonlama yetuk shaxsni va uning aksini shakllantirishda yordam beradi. Shu urinda tarbiya va ta'lim tushunchasini ilmiy izohini keltirib o'taman. Tarbiya-muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongli, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta'lim-o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalar shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.

Bolar ta'lim tarbiyasiga bugungi kunda juda kam e'tibor berilmoqda.Farzandga aytilgan har bir so'z uning kelajag hayotida o'z aksini topib boradi. Ota onalar farzandlariga aytayotgan har bir so'zları farzand uchun eng kuchli ta'sir vositasi hisoblanadi. Farzandlar boshqa kishilardan ko'ra ko'proq ota onalaridan maqtov eshtishni xohlaydilar .

Ularning hayotida yana bir shaxs borki bu bola uchun o'ta bilimli hamma narsani biluvchi doimo to'g'ri ish qiluvchi shaxsdir va bu shaxs ta'lim beruvchi boshlang'ich sinf o'qituvchilari hisoblanadi. Bolalar o'qituvchilarini yaxshi ko'radir unga yoqishga undan ham maqtov eshtishga uning barcha aytganarini so'zsiz bajarishga intiladilar .

Ko'rindiki bola hayotida ikki ahamiyatli shaxs bor ulardan biri uning ota onasi biri o'qituvchisidir. Bola ta'lim- tarbiyasidagi ijobiy va salbiy natijalar shu ikki shaxs nomi bilan bog'liq hisoblanishi . Negaki bizning ta'lim bilim berish o'qitish bilan cheklanib qolmay tarbiyalovchi ta'lim hamdir. Ta'lim va tarbiya egizak tushunchalar bo'lin biri birini to'ldiradi biri birisiz kamtik bo'lib qoladi.Shuning uchun ham ta'limni tarbiyadan ajratib bo'lmaydi."Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabitidir"- Abdulla Avloniy Moziyga qaytib ko'rish xayrlik deydilar, shu o'rinda Abdulla Avloniyning quyidagi so'zlarini ham keltirib o'tish joiz deb o'layman:"Tarbiya biz uchun yo hayot -yo mamot yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir."

Bolalik davrlarida xusulan shaxsning tarbiya yoshi bo'lgan mакtabgacha yosh davrida imitatsiya ustun turadi bolalarda .

Ulardagi ilk xulq atvor shakllari ham kattalarga immitatsiya qilish orqali shaklanadi. Kattalar bolalarga qanday tarbiya berish kerakligini , ularning qanchalik nozik qalb egasi bиргина nojoiz so'z ularning ruhida chuqur iz qoldirishi mumkinligini bilmaydilar. Bolalardagi yosh davrlarini hisobga olmaydilar. Ularga katta odamning kechik bir nusxasi sifatida qaraydilar . Ularning erkinliklarini haddan ortiq chiklashadi. Agarda ta'lim tarbiya uchun ma'sul bo'lgan shaxslarda psixologik ong yetarli bo'lganda edi, jamiyatda axloqiy buzuq , o'g'ri va jinoyatchilar deviant xulqli shaxslar nisbatan kam bo'lar edi .

Mening fikrimcha bunday salbiy oqibatlarni oldini olish maqsadida 1."Biz oilaga tayyormiz" o'quv dasturini ishlab chiqish unda yuqoridağı muommolarni inobatga olgan holda yosh avlodga kerakli bilimlarni berish va ular ushbu bilimlarni egallaganliklari haqidagi hujjat va maxsus tekshiruvdan

o'tkazilganidan keyingina nikoh tuzilganligi tug'risidagi xujjat tasdiqdan o'tkazilish va ushbu yuqoridagilar qonun bilan tasdiqlab qo'yilish.

2.Mahallalarda psixologlar pedagoglar ishtirikida har hafta yosh oilalarga: "Bolalar ta'lim-tarbiyasida yo'l qo'yiladigan kamchiliklar va muommoli vaziyatlarga oqilona yechimlar" mavzusida davra suhbatlari o'tkazilish

3.Teledasturlar doirasiga "Ta'lim va tarbiya psixologiyasi" kabi ko'rsatuvar tashkillashtirish va unga nufuzli mutahasislarni jalg qilish va tomoshabinni qiziqtirgan va ularni o'ylantirgan savollariga javob olishlariga yordam berish

Shu kabi bir qator islohatlar amalga oshirisa bu albatta kelajakda o'zining natijasini beradi . Holbuki natijalar bilan ishlagandan profilaktik ishlarni keng yo'lga qo'ygan o'rnlidir.

Shaxs shakllanishida xar bir so'z , xulq-atvorning mayda elementlariga ham e'tibor berish zarur.Zero hech bir so'z , har bir amal oqibatsiz bo'lmaydi.Buyuk mutafakkirlarimizdan bo'lgan Abdulla Avloniy aytganidek:

Tug'ib tashlash bilan bo'lmas bola , bo'lg'ay balo sizga,

Vujudi tarbiya topsa bo'lur ul rahnamo sizga

Temirchining bolasi tarbiya topsa, bo'lur olim,

Buzilsa xulqi, Luqmon o'gli bo'lsa bo'lg'usi zolim.

### **Adabiyotlar ro'yxati.**

1. Мухамедова, З. Г. (2020). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРИНЦИПОВ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ОБОРУДОВАНИЯ МОНТАЖНОЙ ПЛОЩАДКИ АВТОМОТРИСЫ С УЧЕТОМ НОРМ НАДЕЖНОСТИ И РЕАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ. Известия Транссиба, (1 (41)), 83-91.
2. Мухамедова, З. Г., & Бахшиллоев, С. Х. (2021). СУЩЕСТВУЮЩАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ПОГРУЗКИ И РАЗГРУЗКИ СКОРОПОРТЯЩИХСЯ ГРУЗОВ. Журнал Технических исследований, 4(3).
3. Мухамедова, З. Г. (2021). МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ НА ОСНОВЕ ПОТРЕБНОСТЕЙ РЕГИОНОВ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 4(9).
4. Мухамедова, З. Г., & Эргашева, З. В. (2021). ЭКОНОМИКО-МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ КОНТЕЙНЕРНОГО БЛОК-ТРЕЙНА. Журнал Технических исследований, 4(3).
5. Mukhamedova, Z. G. (2019). Analysis and Assessment of Power Efficiency of Special Self-Propelled Railway Rolling Stock. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 9(3), 104-109.
6. Хромова, Г. А., Мухамедова, З. Г., & Юткина, И. С. (2016). Оптимизация динамических характеристик аварийно-восстановительных автомотрис. Монография. Научный журнал:«Fan va texnologiya», Ташкент–2016.–253 с.[In.
7. Мухамедова, З. Г. (2015). Динамическая модель для исследования продольных колебаний главной рамы электровоза с учетом установки демпфирующего поглощающего аппарата в автосцепке. Известия Транссиба, (2 (22)), 18-23.